

CAYMAN OROLLARI OFFSHORE MOLİYAVI MARKAZI.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiyot” fakulteti talabasi

Xayitboyev Xusan Botijon og'li

Annotatsiya.

Ushbu tezisda, Cayman orollarining moliyaviy xizmatlar sohasi, bank va sug'urta sektorlari, shuningdek, xususiy kapitalni jalb qilishdagi roli va uning global moliya oqimlariga ta'siri yoritib berilgan va tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mamlakatning qulay soliq muhiti, barqaror huquqiy tizimi va rivojlangan moliyaviy infratuzilmasi uning offshore markaz sifatida muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, tezisda offshore moliyaviy markazlarning shaffoflik va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar kabi muammolari ham ko'rib chiqiladi. Natijada, tezisda Cayman orollarining global moliya tizimidagi o'rni, uning iqtisodiy samaradorligi va xalqaro investitsiya jarayonlaridagi ahamiyatini aniqroq tushunishga yordam beradi. Cayman orollari offshore moliyaviy markaz sifatida global moliya tizimida muhim strategik o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy markaz, soliq imtiyozlari, eksport, import, foiz stavkasi, aktiv, fond, investitsiya portfeli, daromad solig'i.

Kirish.

Offshore moliyaviy markaz — bu korporativ va shaxsiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan, odatda qulay soliq rejimlari, yengil tartibga solish va xalqaro kapital oqimlarini jalb qilishni maqsad qilgan davlat yoki hududdir. Offshore moliyaviy markazlar ko'pincha xalqaro korporatsiyalar uchun soliq yukini kamaytirish, kompaniya tuzilmasini soddalashtirish va global resurslarni boshqarish imkonini beradi.

Cayman Orollari — bu Karib dengizida joylashgan Britaniya Oversea Territoriyasi bo'lib, jahon moliya tizimida offshore moliyaviy markaz sifatida



Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari

muhim rol o'ynaydi. U investitsiya fondlari, banklar, sug'urta kompaniyalari, xususiy kapital va boshqa moliyaviy xizmatlar bo'yicha global miqyosda faoliyat yurituvchi yirik markazlardan biridir. Kayman orollari dunyodagi yetakchi xalqaro offshore moliya markazlaridan biri bo'lib, xalqaro moliya markazlari indeksida (GFCI) 6-o'rinni egallaydi. Bu hudud siyosiy barqarorlik, soliq imtiyozlari (korporativ, daromad, kapital o'sishi soliqlarining yo'qligi) va mustahkam tartibga solish tizimi bilan investorlarni jalb qiladi. Offshore moliyaviy markazlar kapitalni xalqaro miqyosda samarali boshqarish, soliqlarni optimallashtirish va investorlar uchun qulay sharoit yaratish orqali global iqtisodda o'ziga xos o'rin egallaydi. Cayman Orollari, asosan, 20-asrning ikkinchi yarmida jahon moliyaviy tizimida o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Soddalashtirilgan soliq rejimi, huquqiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik darajasi tufayli bu hudud global investorlar uchun jozibali makonga aylandi. Politik va iqtisodiy barqarorlik, shuningdek Britaniya bilan yaqin aloqalar, investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Bu omillar Cayman Orollarini xalqaro moliya tarmoqlarida jozibador hududga aylantirdi. Cayman Orollari boshqa ko'plab moliyaviy markazlardan farq qilgan holatda korporativ soliq, daromad solig'i, kapitaldan olinadigan soliq yoki mulk solig'i yo'q. Bu moliyaviy markazning asosiy afzalliklaridan biri bo'lib, kapitalni global miqyosda samarali boshqarishni osonlashtiradi. Bu holat, ayniqsa, yirik korporatsiyalar va investitsiya fondlari uchun juda jozibali, chunki soliq yukini minimallashtirish orqali rentabellikni oshirish imkonini beradi.

Cayman Orollari moliyaviy sektori juda diversifikatsiyalangan bo'lib, unda quyidagilar faoliyat ko'rsatadi:

Xalqaro banklar;

Investitsiya fondlari (xususan hedge fundlar);

Fond boshqaruv kompaniyalari;


Sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari;

Bu markaz ko'plab xalqaro moliyaviy xizmatlarni taklif etadi, bu esa uni jahon bozorida raqobatbardosh qiladi.



Cayman Orollari Offshore Markazi xalqaro standartlarga javob berish uchun kuchli tartibga solish tizimini yaratgan hisoblanadi. Cayman Islands Monetary Authority (CIMA) — moliyaviy bozorni tartibga soluvchi asosiy organ bo'lib, banklar, sug'urta firmalari va investitsiya fondlarini nazorat qiladi. Markaz anti-pul yuvish va soliqlar bo'yicha xalqaro hamkorlik tashkilotlarida faol ishtirok etadi, jumladan OECD Common Reporting Standard (CRS) va FATF tavsiyalariga rioya qiladi. Shu bilan birga, xavf-xatarlarni prognoz va nazorat qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik orqali jinoiy faoliyatni oldini olish sa'y-harakatlari ham olib boradi.

Cayman Orollari markazi investorlar uchun tezkor kompaniya ro'yxatga olish jarayoni, xalqaro kapitalni erkin muomala qilish, o'zgaruvchan moliyaviy mahsulotlar bo'yicha yuqori darajadagi xizmatlar bilan ta'minlaydi. Bu omillar investitsiya portfellarini global miqyosda samarali boshqarishni qo'llab-quvvatlaydi. Cayman Orollari konstitutsion jihatdan Britaniya sobiq koloniyasi bo'lib, bu esa investitsiya muhitining barqaror va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Hukumatning moliyaviy bozorni qo'llab-quvvatlash siyosati va xalqaro bozor ishtirokchilari bilan yaqin hamkorlik aloqalari ham bu markazning raqobatbardoshligini oshiradi.



1-

jadval.



Cayman Islands Offshore Financial Centre (OFC) ning 2023–2025-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan— faol kompaniyalar soni va xususiy investitsiya fondlari (private funds) soni dinamikasi aks etgan. Tahlil ilmiy-analitik uslubda tahlil qilingan. Faol kompaniyalar soni dinamikasi statistik kuzatuvga ko'ra 2023-yil 118 mingta kompaniya, 2024-yil 121 mingta kompaniya, 2025-yilda esa 124 mingta kompaniyadan iborat bo'lgan. Uch yil davomida faol kompaniyalar soni barqaror o'sish trendini namoyon qilgan. Umumiy o'sish hajmi 2023–2025 yillarda 6 mingta kompaniyani tashkil etib, bu taxminan 5,1 % lik o'sishga teng. Cayman Islands moliyaviy huquqiy tizimi investorlar uchun aniq va moslashuvchan hisoblanadi. Bu esa uzoq muddatli korporativ ro'yxatdan o'tishni rag'batlantiradi. Transmilliy kompaniyalar uchun Cayman orollari holding tuzilmalari va investitsiya vositalarini joylashtirishda muhim moliyaviy markaz bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda global investitsiya oqimlarida risklarni kamaytirish maqsadida kapital bir nechta moliyaviy markazlarga taqsimlanmoqda, Cayman orollari esa ushbu jarayonda eng yuqori hududlardan biri hisoblanadi. Kompaniyalar sonining oshishi Cayman oroli offshore moliyaviy markazning institutsional jozibadorligi va xalqaro moliya tizimidagi barqaror mavqeini tasdiqlaydi. Xususiy investitsiya fondlari (Private Funds) dinamikasi 2023-yil 16,9 mingta fond, 2024-yil 7,3 mingta fond, 2025-yilda esa 17,7 mingta fondni tashkil etgan. Uch yil ichida fondlar soni 800 taga oshgan, bu taxminan 4,7 % o'sishni anglatadi. Fondlar sonining oshishi individual investorlar emas, balki professional boshqaruv ostidagi kapital ulushining kengayayotganidan dalolat beradi. Xususiy kapital (private equity), venchur fondlar va xedj fondlarga qiziqish oshib borayotgani Cayman orollarini global alternativ moliya markaziga aylantirmoqda. So'nggi yillarda global talablarining kuchayishiga qaramay, fondlar sonining kamaymasdan o'sishi Cayman moliyaviy tizimining moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Xulosa.

Cayman Orollari offshore moliyaviy markazi — bu dunyoning eng muhim global moliya markazlaridan biri bo'lib, o'zining qulay soliq rejimi, barqaror tartibga solish tizimi, diversifikatsiyalangan moliyaviy xizmatlari va xalqaro

standartlarga mosligi bilan ajralib turadi. U jahon kapital oqimlarini boshqarish va investorlar uchun jozibador muhit yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro moliyaviy hamjamiyatda Cayman Orollari offshor markazining roli va uni tartibga solish bo'yicha sa'y-harakatlar yanada shaffof va ishonchli bo'lishini ta'minlash borasida izchil harakatlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Cayman Finance: Fund Statistics Report — Cayman Orollari xususiy fondlar statistikasi.
2. Cayman Islands Monetary Authority: Financial Stability Report.
3. Transparency International UK — Cayman Islands moliyaviy xizmatlar tahlili.
Cayman Islands Monetary Authority (CIMA).
4. Annual Report and Regulatory Statistics. Cayman Islands, 2023–2025.
5. Offshore Financial Centers: Background Paper. Washington, D.C., IMF Publications.
6. Offshore Financial Centers: A Framework for Analysis. IMF Working Paper, Washington, D.C.
7. Financial Secrecy Index. TJN Research Reports.

